Shu bilan birga, innovatsiya jarayonlarini joriy etish ham raqobatbardoshlikni oshirishda asosiy vosita sifatida e'tirof etiladi. Ispaniya tadqiqotida aniqlanishicha, innovatsiya strategiyasi raqobat strategiyasi bilan birgalikda qo'llanganda, mahsulot, xizmat va boshqaruv tizimlarini yangilash orqali bozor natijalariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya nafaqat mahsulot yoki xizmat shaklida, balki jarayonlarni optimallashtirish, texnologik yechimlarni joriy etish va marketing faoliyatini raqamlashtirish orqali ham namoyon bo'ladi. Shu tarzda, strategiya va innovatsiyaning uyg'unligi kichik biznes sektorlar uchun resurslar cheklangan sharoitda ham yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ular uchun xarajatlarni tejash, bozor ma'lumotlarini to'plash, maqsadli auditoriyani aniqlash va marketing siyosatini to'g'ri yo'naltirish raqobat strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Innovation and Entrepreneurship Journalda chop etilgan tadqiqotda marketing salohiyati innovatsiya va bozor natijalari o'rtasidagi aloqani mustahkamlovchi asosiy omil sifatida qayd etilgan. Ya'ni korxonalar bozorni chuqur tahlil qilib, mijoz ehtiyojlarini aniqlasa, innovatsion yechimlar samaraliroq bo'ladi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni joriy etish kichik bizneslar uchun raqobat afzalligi yaratadi. Innovation and Entrepreneurship jurnalining 2025-yilgi tadqiqotida raqamli texnologiyalarni o'z faoliyatiga qo'shgan kichik ishlab chiqarish korxonalari o'z raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirgani qayd etilgan [4]. Texnologik integratsiya ularga xarajatlarni kamaytirish, xizmatni tezlashtirish va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini bergan.

O'zbekistonda kichik biznes subyektlari uchun raqobat strategiyalarini maqsadli — ya'ni atrof-muhitga mos, korxonaning ichki imkoniyatlari bilan uyg'un tarzda — belgilash va joriy etish nafaqat korxona darajasida



samaradorlikka erishish, balki milliy iqtisodiy barqarorlik va bozor integratsiyasiga erishishda ham muhim omilga aylanmoqda. To'g'ri strategiya va yondashuv bilan kichik korxonalar nafaqat omon qolishi, balki yuqori raqobatbardosh bozorlarda ham rivojlanishi mumkin.

2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 12-yanvardagi nutqida "kichik biznesni raqamli transformatsiya jarayonlariga faol jalb qilish, innovatsion ekotizimni yaratish va eksport salohiyatini oshirish" zarurligi ta'kidlandi [5]. Kichik biznes subyektlari uchun raqobatbardosh bozorga kirish puxta rejalashtirish, strategik fikrlash va bozor dinamikasini chuqur tushunish bilan bog'liq. Raqobat shiddatli bo'lishi mumkin bo'lsa-da, kichik biznes chaqqonlik, moslashuvchanlik va tezda yangilik kiritish qobiliyatiga ega bo'lishi ham mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon tadqiqotchilari R. Hurdawaty va M. Tukiran tadqiqotlariga ko'ra, kichik va o'rta bizneslarning raqobatbardoshligini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, mahsulot va xizmat innovatsiyalarini amalga oshirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish va marketing strategiyalarini yangilash zarurligi asoslab berilgan [6]. Shuningdek, A. Gustie va A. Rivana tadqiqotlariga ko'ra, kichik va o'rta bizneslarning xalqaro bozorlarga kirishida eksport to'siqlarini yengib o'tish, hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash va raqobat ustunliklarini rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan [7]. Bundan tashqari, M. Heriyanto olib borgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, kichik biznes sektorlarining raqobat ustunligini ta'minlashda strategik rejalashtirish, resurslarni samarali boshqarish, inson omilining ahamiyati va innovatsiyalarni joriy etish muhim omillar ekanini ko'rsatib berilgan [8].

Biroq MDH tadqiqotchilari mavzu yuzasidan o'z xulosalarini ilgari surishgan. N. Pavlović va I. Čelić tadqiqotlariga ko'ra, kichik va o'rta bizneslarning raqobatbardoshligini oshirish uchun differensiallashuv va xarajat bo'yicha yetakchilik strategiyalarini qo'llash zarurligi asoslangan [9]. A. Hussain va R. Rizwan olib borgan tadqiqot esa sun'iy intellektni strategik tarzda joriy etish uchun bosqichma-bosqich operativ strategiya zarurligini, AI-ni esa katalizator sifatida raqobat pozitsiyasini mustahkamlashda qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi [10]. K. Lailaturrahmah va D. Danial esa virtual hamkorlikdagi PR jamoalaridan foydalanish korxonalar raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim vosita ekanini ko'rsatadi [11].

Ushbu yo'nalishda O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham qator ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masalan, N. Sharopova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirish omillari, tashqi bozorlarga chiqishdagi mavjud cheklovlar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [12]. S. Boyjigitov izlanishlarida kichik bizneslarning innovatsion rivojlanishi, ularning bozor raqobatidagi ustunliklarini shakllantirish va texnologik modernizatsiyaning strategik ahamiyati chuqur tahlil qilingan [13]. D. Xolmatov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va raqobat strategiyalarini kuchaytirish mexanizmlari asoslab berilgan [14]. Shuningdek, M. Pazilidinov kichik biznes faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari, innovatsion yondashuvlar va ular orqali korxonalar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rgangan [15]. Ismoilov izlanishlarida O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlarining raqamli transformatsiya jarayonlari, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash, bozor muhitiga moslashuv strategiyalarini shakllantirishga oid ilmiy takliflar ishlab chiqilgan [15].

Umuman olganda, ushbu barcha tadqiqotchilar izlanishiga asoslanib quyidagi xulosaga kelish mumkin: jahon va MDH tadqiqotchilari, shuningdek O'zbekiston olimlari tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta bizneslarning raqobatbardoshligini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsiyalarni amalga oshirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish va marketing strategiyalarini yangilash muhim ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt va virtual hamkorlikdagi jamoalardan foydalanish strategik afzalliklarni ta'minlaydi. Shu bilan birga, resurslarni samarali boshqarish, strategik rejalashtirish va inson omilining roli raqobatbardoshlikni oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida esa davlat qo'llab-quvvatlashi va moliyaviy imkoniyatlar kichik biznesning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, global tajriba va lokal sharoitlarni uyg'unlashtirgan holda raqobat strategiyalarini ishlab chiqish kichik biznesning uzoq muddatli rivojlanishi va bozor o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Bugun raqobat sharoitida o'z brendi, o'z tovar yoki xizmatini takomillashtirgan kompaniyalargina o'z iste'molchilariga ega bo'lib, bozorda o'z pozitsiyasini qo'lga kiritishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot kichik biznes subyektlarida raqobat strategiyalaridan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lib, metod sifatida faqat miqdoriy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot uchun zarur statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika qo'mitasining rasmiy ochiq ma'lumotlar bazasidan olindi. Tahlilda quyidagi ko'rsatkichlar viloyatlar kesimida miqdoriy usullar orqali o'rganildi:



- kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi;
- kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YAIMdagi ulushi;
- kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari) hajmi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqaradigan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy importdagi ulushi iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Ushbu ulushning oshishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi va importga bo'lgan qaramlikni kamaytiradi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining faoliyati ichki bozorni to'ldirish va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Quyidagi jadvalda keltirilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqarishdagi ulushi bilan bir qatorda, ularning eksportdagi hisssasi ham mamlakat iqtisodiy barqarorligida muhim o'rin tutadi. Ushbu korxonalar eksport salohiyatining o'sishiga hissa qo'shib, milliy valyuta tushumlarini ko'paytirish, tashqi bozorlarda mahalliy brendlarning tanilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kichik bizneslarning eksport faoliyati ichki ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, yangi texnologiyalar joriy etilishiga va xalqaro hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishiga yordam beradi (1-jadval).

1-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot eksportdagi ulushi (viloyat kesimida), foizda¹ [1]

Klassifikator	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2021-yilga nisbatan 2024-yilgi o'sish	2023-yilga nisbatan 2024-yilgi o'sish
O'zbekiston Respublikasi	20	31,2	27,9	34,1	-14,1	-6,2
Qoraqalpog'on Respublikasi	20,3	16,4	24,3	28,5	-8,2	-4,2
Andijon viloyati	36,5	37,4	29,2	37,3	-0,8	-8,1
Buxoro viloyati	38,7	54,5	45,6	58,6	-19,9	-13
Jizzax viloyati	46,3	49,3	43,3	63,2	-16,9	-19,9
Qashqadaryo viloyati	51,5	39,3	22,5	20,6	30,9	1,9
Navoiy viloyati	11,6	8,7	9,3	8,2	3,4	1,1
Namangan viloyati	49,7	44,4	42,5	50,4	-0,7	-7,9
Samarqand viloyati	45,7	50,8	41,1	46,2	-0,5	-5,1
Surxondaryo viloyati	60	64	71,5	87,1	-27,1	-15,6
Sirdaryo viloyati	76,3	69,2	63,4	64	12,3	-0,6
Toshkent viloyati	23,4	29,8	32,5	35,4	-12	-2,9
Farg'ona viloyati	49	51,6	68,2	61,6	-12,6	6,6
Xorazm viloyati	51,8	58,2	63,4	67,1	-15,3	-3,7
Toshkent shahri	17,8	21,7	21,2		-8,9	-5,5

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 4 yil ichida mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi hududiy tafovutlar rivojlanish istiqbollari aniqlash imkonini bermoqda. Surxondaryo viloyatining ulushi yuqori bo'lishi eksport salohiyatini kengroq ro'yobga chiqarish imkonini ko'rsatsa, Navoiy viloyatidagi past ko'rsatkichlar esa yangi yo'nalishlar ochish, ishlab chiqarish bazasini diversifikatsiya qilish va tashqi bozorlarga chiqish strategiyalarini kuchaytirish zarurligini anglatadi. Shuningdek, butun Respublika bo'yicha 2021–2024-yillar oralig'ida iqtisodiy yoki ijtimoiy ko'rsatkichlarda kuzatilgan o'zgaruvchanlik hududlarda barqarorlikni mustahkamlash uchun qo'shimcha mexanizmlarni joriy etish imkoniyatlarini yaratmoqda. Global jarayonlar ta'sirining kamayib borishi iqtisodiy faoliyatni tiklashga xizmat qilishi kutiladi.

Iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishi uchun ichki ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, talabning bosqichma-bosqich tiklanishi va mehnat resurslari salohiyatini rivojlantirish bo'yicha keng imkoniyatlar shakllanmoqda. Inflyatsiya jarayonlarini yumshatish, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish

1 Statistika ma'lumotlariga asoslanib muallif ishlanmasi



va umumiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga qaratilgan dasturlar yaqin yillarda hududlar kesimida ijobiy dinamikani ta'minlashi prognoz qilinadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi mamlakat iqtisodiy salohiyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichning oshib borishi kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati ortib borayotganini anglatadi. Kichik korxonalar tomonidan yaratilayotgan qo'shimcha qiymat ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, xizmatlar tarmog'ining rivojlanishiga va aholi bandligining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, YAIMdagi ulushning barqaror o'sishi mamlakatda tadbirkorlik muhitining yaxshilanayotganidan dalolat beradi (2-jadval).

2-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YAIMdagi ulushi (viloyatlar kesimida)² [1]

Klassifikator	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2021-yilga nisbatan 2024-yilgi o'sish	2023-yilga nisbatan 2024-yilgi o'sish
O'zbekiston Respublikasi	56,9	54,6	54,3	54,3	2,6	0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	61,4	61,6	64,6	65,8	-4,4	-1,2
Andijon viloyati	74,6	69,5	68,6	69,5	5,1	-0,9
Buxoro viloyati	77,1	74,1	72,5	73	4,1	-0,5
Jizzax viloyati	81	78,6	75,3	74,5	6,5	0,8
Qashqadaryo viloyati	71,8	70,1	70,5	71	0,8	-0,5
Navoiy viloyati	29,2	27,9	28,1	25,1	4,1	3
Namangan viloyati	76,2	74,6	74,3	73,4	2,8	0,9
Samarqand viloyati	74,3	70,8	72,3	72,3	2	0
Surxondaryo viloyati	78,4	77,7	77,4	77,8	0,6	-0,4
Sirdaryo viloyati	71,2	67,7	65,9	68,2	3	-2,3
Toshkent viloyati	48,2	49,4	52,2	53,9	-5,7	-1,7
Farg'ona viloyati	72,4	71,6	72,2	73,2	-0,8	-1
Xorazm viloyati	75,8	71,9	72,7	72,3	3,5	0,4
Toshkent shahri	51,1	51,4	51,7	52,4	-1,3	-0,7

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YAIMdagi ulushi viloyatlar kesimida 2021–2024-yillar davomida o'rganilganda, eng yuqori ko'rsatkich Jizzax viloyatiga tegishli. Bundan tashqari, Xorazm, Surxondaryo, Buxoro va Namangan viloyatlari ham YAIMda yuqori ulushga ega. Eng kichik ulush esa Navoiy viloyatida ekanligi aniqlangan. 2021–2024-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida umumiy o'sish sekin kechgan bo'lsa-da, bu davr iqtisodiy faollikni barqarorlashtirish va yangi o'sish drayverlarini shakllantirish uchun metodik asos yaratib berdi, shuningdek ayrim hududlarda kuzatilgan pasayish tendensiyalari kelgusi strategik chora-tadbirlar orqali rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish imkoniyatlarini ko'rsatib berdi. Ushbu jarayonlarda pandemiya oqibatlari, ichki ishlab chiqarishdagi nomutanosiblik, inflyatsiya va hududiy tafovutlarning kuchayishi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish zanjirlarini muvozanatlashtirish va hududlar bo'yicha resurs taqsimotini optimallashtirishning yangi yo'nalishlarini belgilab berdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi mamlakat sanoat salohiyatining o'sishini aks ettiruvchi muhim iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu sohada kichik korxonalar faoliyati yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, texnologik yangilanishlarni joriy etish va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Kichik biznesning sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi ortib borishi raqobat muhitini kuchaytiradi hamda milliy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadi. Shu bilan birga, ularning xizmat ko'rsatish hajmining oshishi iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (3-jadval).

2 Statistika ma'lumotlariga asosanib muallif ishlanmasi

3-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (viloyatlar kesimida)³ [1]

Klassifikator	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2021-yilga nisbatan 2024-yilgi o'sish	2023-yilga nisbatan 2024-yilgi o'sish
O'zbekiston Respublikasi	124908	143893	177892	280444	-155536	-102552
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3675,4	3606,7	5314,6	8897,3	-5221,9	-3582,7
Andijon viloyati	9772,8	12180,9	16361,8	27009,9	-17237	-10648
Buxoro viloyati	8048,8	9104,5	9716,1	17318,4	-9269,6	-7602,3
Jizzax viloyati	4533,2	5700,8	4824,6	6982,7	-2449,5	-2158,1
Qashqadaryo viloyati	5124,1	5213	6248	14188,1	-9064	-7940,1
Navoiy viloyati	4892,9	6070,5	7863,1	13271,9	-8379	-5408,8
Namangan viloyati	7229,5	8112,6	10133,7	15889,8	-8660,3	-5756,1
Samarqand viloyati	9616,8	11131,9	14852,5	22858	-13241	-8005,5
Surxondaryo viloyati	3378,6	3066	4264,8	8630,7	-5252,1	-4365,9
Sirdaryo viloyati	3860,4	3677,2	4865,8	8249,8	-4389,4	-3384
Toshkent viloyati	14382,9	19650,2	26139,4	40811	-26428	-14672
Farg'ona viloyati	12708,2	13323,4	17508,5	24160,7	-11453	-6652,2
Xorazm viloyati	2972	2932,5	3521,1	5509,1	-2537,1	-1988
Toshkent shahri	34712,2	40122,5	46278,1	66666,4	-31954	-20388

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari) hajmida eng yuqori ulush Toshkent shahariga tegishli bo'lib, eng past ko'rsatkich esa Xorazm viloyatiga tegishlidir.

Quyidagi jadvalda kichik biznes rivojiga to'sqinlik qilayotgan umumiy muammolarni bartaraf etishda bir nechta rivojlangan davlatlar tajribasi jamlangan bo'lib, ularning har biri moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni joriy etish, kadrlar tayyorlash, raqamli marketingni rivojlantirish va data-asosli boshqaruvni kuchaytirish bo'yicha samarali yondashuvlarni taklif etadi. Ushbu tajribalar O'zbekiston sharoitida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan amaliy yechimlar sifatida xizmat qilishi mumkin (4-jadval).

4-jadval. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha rivojlangan davlatlarning tajribalari tahlili⁴

Muammo	Turkiya	Malayziya	Janubiy Koreya	Singapur
Cheklangan moliyaviy resurslar (bank kreditlarining murakkabligi va yuqori foiz stavkalari)	KOSGEB orqali KOBlarni subsidiyalar va kafolatli kreditlar (kosgeb.gov.tr)	SME Financing Scheme – past foizli kreditlar, grantlar (smecorp.gov.my)	KOBlar uchun eksport va investitsiya grantlari, davlat kafolatlari (kotra.or.kr)	SMEs Go Digital orqali raqamli bizneslarga moliyaviy yordam (mti.gov.sg)
Innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar	TUBITAK grantlari va texnologiya transferi (tubitak.gov.tr)	MIGHT – texnologik innovatsiyalarni rag'batlantirish (might.org.my)	K-Tech Fund va startaplar uchun texnologik grantlar	SMEs Go Digital va innovatsion grantlar
Malakali kadrlar tanqisligi	Kasb-hunar markazlari va ish o'rinlariga mos o'quv dasturlari (iskur.gov.tr)	HRDF orqali malakali kadrlarni tayyorlash (hrdf.com.my)	Industry-University hamkorlik dasturlari	Raqamli transformatsiya va kadrlar treninglari

3 Statistika ma'lumotlariga asoslanib muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi



Marketing va raqamli strategiya bo'yicha yetarli tajriba yo'qligi	Dijital Turkiye Platformasi – raqamli ko'nikmalar va qo'llanmalar (digitalturkey.org.tr)	SME Digitalization Program – raqamli marketing va e-commerce (smecorp.gov.my)	KOB raqamli marketing va e-commerce dasturlari	SMEs Go Digital, raqamli marketing va e-commerce qo'llanmalar
Bozor ma'lumotlariga asoslangan qarorlar qabul qilishdagi sustlik	TURKSTAT ma'lumot portallari va iqtisodiy tahlil (tuik.gov.tr)	Open Data Malaysia – davlat ma'lumotlarini ochiq qilish va tahlil (data.gov.my)	Korean Statistical Information Service va ochiq ma'lumotlar portali	Davlat ma'lumotlar portallari va data-driven qarorlar

Moliyaviy cheklorlar Turkiya va Malayziya tajribasidan kelib chiqib, past foizli kreditlar, subsidiyalar va grantlar orqali hal qilinishi mumkin. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish muammosi Janubiy Koreya va Singapur tajribasida bo'lgani kabi startap va innovatsion grantlar orqali, malakali kadrlar yetishmovchiligi esa Turkiya va Malayziya kabi kasb-hunar markazlari va trening dasturlari orqali bartaraf etilishi mumkin. Marketing va raqamli strategiya bo'yicha yetishmovchilik Malayziya va Singapurda qo'llanilayotgan raqamli marketing dasturlari orqali, bozor ma'lumotlaridan samarali foydalanmaslik esa Turkiya va Janubiy Koreyaning ochiq ma'lumot portallari va data-driven qaror qabul qilish tizimlari orqali yechim topadi.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O'zbekiston kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirib, barqaror rivojlanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari o'zining strategik pozitsiyasi, missiyasi hamda bozor iqtisodiyotidagi o'rnidan kelib chiqqan holda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni turlicha darajada qo'llamoqda. Raqamli transformatsiyaning amaliyotga tatbiq etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va bozor talablariga tezkor moslashish imkonini bermiqda.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston hududida kichik biznes iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega soha sifatida shakllanmoqda. So'nggi yillarda kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi barqaror o'sib borayotgani ushbu sektorning nafaqat iqtisodiy faoliyatdagi o'rnini mustahkamlab, balki milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi ulkan salohiyatini yaqqol namoyon etmoqda. Bu esa iqtisodiy tizimning diversifikatsiya qilinishi, mahsulot turlari kengayishi va yangi innovatsion imkoniyatlarning yaratilishiga zamin yaratmoqda.

Kichik biznesning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi ortib borayotgani ham e'tiborga molikdir. Ushbu o'sish, bir tomondan, innovatsion mahsulotlar yaratishda, yangi texnologiyalarni joriy etishda va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishda muhim omil sifatida xizmat qilsa, boshqa tomondan, hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, kichik biznesning eksportdagi ulushi oshayotgani O'zbekiston mahsulotlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirayotganini bildiradi. Raqobatning jahon miqyosida ortib borayotgan bir davrda kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorga chiqishi eksport geografiasining kengayishiga, mahalliy brendlarning tan olinishiga va valyuta tushumlarining ko'payishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Demak, kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiy o'sishining tayanchi, ichki bozorni barqarorlashtiruvchi omil, aholi bandligining asosiy manbai va eksport salohiyatining muhim drayveri sifatida shakllanmoqda. Mazkur sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun samarali raqobat strategiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ayniqsa, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, marketingning zamonaviy vositalaridan foydalanish, elektron tijoratni kengaytirish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha tizimli islohotlar kichik biznesning raqobatbardoshligini yanada kuchaytiradi. Shu tariqa, kichik tadbirkorlik O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasida asosiy o'rin tutuvchi, iqtisodiy o'sishning barqaror drayveri bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi <https://stat.uz/uz/>
2. How to Improve Market Performance through Competitive Strategy and Innovation in Entrepreneurial SMEs — International Entrepreneurship and Management Journal, Springer, 2024 10.1007/s11365-024-00947-9.
3. Competitive Strategies and Performance of Micro and Small Enterprises in Kenya — Kenyatta University Research Repository, 2023 10.57096/return.v2i04.81
4. Digital Transformation and Competitive Advantage in SMEs — Innovation and Entrepreneurship Journal, SpringerOpen, 2025. 10.13140/RG.2.2.35346.67525
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida” PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
6. Ramon Hurdawaty & Martinus Tukiran (2024). Strategies to Increase the Competitiveness of Micro, Small and Medium Enterprises (MSMEs): A Narrative Literature Review. South Asian Journal of Social Studies and Economics, 21(1), 112–125. 10.9734/sajsse/2024/v21i1768 journalsajsse.com
7. Syaifullah Abilla Gustien, Amalya Rivana, Farraz Andiko & Muhamad Faiz (2025). The Role of Digital Transformation in Increasing the Competitiveness of MSMEs Using Bibliometric Analysis. Engineering And Technology Journal, 10(7). 10.47191/etj/v10i07.06. everant.org
8. Rachmian, Naufal Haidar Ahmada & Darusman (2024). Optimization of Digital Technology Utilization in Marketing Strategy Development to Enhance the Competitiveness of MSME Products. International Journal of Management Science and Information Technology, 5(1). 10.35870/ijmsit.v5i1.3648. journal.lembagakita.org
9. Nebojša Pavlović & Irena Čelić (2020). The analysis of competitive strategies from the perspective of small and medium enterprises. Hotel and Tourism Management, 8(1), 101–110. 10.5937/menhottur2001101P. htmanagementvb.com+1
10. Hussain A & Rizwan R. (2023). Artificial intelligence as a strategic catalyst in SME development. Journal of Digital Economy and Management, 5(2), 90–107.
11. Khoirunnisa Lailaturrahmah & R Deni Muhammad Danial & Tetty Sufianty Zafar (2024). Driving Economic Competitiveness through Innovation and Differentiation Strategies. International Journal of Economics Development Research (IJEDR), 6(4). 10.37385/ijedr.v6i4.8070.
12. Sharopova N. (2023). O'zbekistonda kichik biznes subyektlari eksport salohiyatini oshirish: tahlil va prognozlash. Green and Eco-Environment Journal, 3(2), 44–53. <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/5485>
13. Boyjigitov S. (2022). Kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanishi va raqobatdoshligini ta'minlash masalalari. Iqtisodiyot va Ta'lim, 6(1), 112–118. <https://inlibrary.uz/index.php/iqtisod-va-talim/article/view/23420>
14. Kholmatov D. (2023). Kichik bizneslarda raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. Digital Economy Scientific Journal, 5(3), 67–76. <https://digitaleconomy.uz/index.php/journal/article/view/3021>
15. Pazilidinov M. M. o'g'li. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari. Innovations in Science and Technologies, 2(4), 2025 <https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/827>
16. Ismoilov D. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlarining raqamli transformatsiyasi asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash va takomillashtirish yo'llari. Raqamli Iqtisodiyot va Axborot Texnologiyalari jurnali, 5(2), 171–176, 2025. <https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/article/view/364>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>